

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN HIMOYA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.

Choriyev Asqarali Bayramali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8000020>

Annotatsiya. *Profilaktika inspektorining xotin - qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish faoliyatini tashkil etish jarayonini o'rganish.*

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, epidemiya, iqtisodiy zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik.*

ORGANIZING THE ACTIVITY OF THE PREVENTION INSPECTOR TO PROTECT WOMEN FROM HARASSMENT AND VIOLENCE.

Abstract. *To study the process of organization of activities of prevention inspector against harassment and violence against women.*

Key words: *violence, epidemic, economic violence, physical violence.*

ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРА ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ПО ЗАЩИТЕ ЖЕНЩИН ОТ ДОМОГАТЕЛЬСТВ И НАСИЛИЯ.

Аннотация. *Изучить процесс организации деятельности инспектора по профилактике домогательств и насилия в отношении женщин.*

Ключевые слова: *насилие, эпидемия, экономическое насилие, физическое насилие.*

Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xususan shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini turli jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat beriladi. Afsuski, so'nggi yillarda butun dunyoda oila-turmush munosabatlari doirasida ayollar, bolalar va qariyalarga nisbatan jabr-zulum va zo'ravonlik qilish ko'p tarqalgan ijtimoiy hodisalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammo Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar muammolariga bag'ishlangan to'rtinchi anjumani dasturida «oiladagi zo'ravonlik» ko'pgina davlatlarda «epidemiya» deb tan olingan. Bunday turdagi zo'ravonliklarni barvaqt aniqlash, oldini olish, zararsizlantirish, oiladagi zo'ravonliklardan jabrlangan shaxslar bilan ishlash, ayniqsa oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarga nisbatan samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ayrim davlatlarda maxsus qonunlar qabul qilingan bo'lib, mazkur qonun hujjatlari asosida oiladagi nizolarni hal qilish, undan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy, tibbiy, ruhiy, huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazlar tashkil etilgan. Lekin, ushbu markazlarga oila a'zolari tomonidan zo'ravonlik ishlatilishi oqibatida jabrlangan shaxslarning aksariyati murojaat qilmasligi natijasida oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar latentlik darajasining yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bu esa, huquqni qo'llash amliyyotida shu kabi muammolar yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy yechim topishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, turli tahdid va tajovuzlardan ishonchli himoya qilish, xususan, oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etishning ma'naviy, huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mazkur qonun hujjatlari talablari asosida inson huquq va erkinliklarini, oila manfaatlarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni har

qanday ko'rinishdagi tahdid va tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha respublika «Oila» ilmiyamaliy markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning huzuridagi «Yarashtirish komissiyasi», Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis lavozimi, O'zbekiston «Yoshlar ittifoqi» kabi maxsus institutlar tashkil etilib, ularning faoliyati takomillashtirilmoqda.

Shunga qaramasdan, mamlakatimizda har yili 30 mingdan ortiq oilalarning ajralishiga oid ajrimlar qayd etilib, bu masalalar bo'yicha sudlarga murojaat etganlarning 70 foizidan ortig'i oilasida nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit, er-xotin, qaynona-kelin o'rtasida kelishmovchilik va nizolar mavjudligi kuzatilmoqda.

Tahlillar bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning, xususan qotillikning 29 foizi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning 20 foizi, haqorat qilish va tuhmatning 13,5 foizi aynan oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: **«Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda»**, – deb ta'kidlagan edi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiqva zo'ravonliklarga oid turli tushunchalar mavjud: zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik); jinsiy zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

jismoniy zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli

iqtisodiy zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish

joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli, xotinqizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

ruhiy zo'ravonlik — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir

uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik);

Oilada jinslarning ruhiy-fiziologik xususiyatlari va ularning jamiyatda o'ynagan roli, ayollar xarakterining yumshoqligi, ularning chidamliligi va sabr-bardoshliligi hayotdan mahrum qilish yoki badanga shikast yetkazish bilan bog'liq holda g'arazli niyatini amalga oshirish uchun ayollarning jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi . Qaysidir ma'noda, bunday holat an'anaviy tarbiya oqibati bo'lib, erkaklarning agressiv hulq-atvori muammolarni hal qilishning yagona va samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi .

REFERENCES

1. <https://akadmvd.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil 29 avgust. – T.: “Adolat”, 2017.
3. <https://lex.uz/>